

ADABIY TILDAGI LEKSIK BO'SHLIQLARNI TO'LDIRISHDA TARIXIY SO'ZLARDAN FOYDALANISH

Abdumannon Majidovich HASANOV

PhD, doktorant

O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Toshkent, O'zbekiston

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ СЛОВ ПРИ ЗАПОЛНЕНИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ ПРОБЕЛОВ В ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ

Абдуманнон Маджидович ХАСАНОВ

PhD, докторант

Институт узбекского языка, литературы и фольклора АН Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

USING HISTORICAL WORDS TO FILL LEXICAL GAPS IN LITERARY LANGUAGE

Abdumannon Majidovich KHASANOV

PhD, Doctoral student

The Academy of Sciences of Uzbekistan, Institute of the Uzbek language, literature and folklore

Tashkent, Uzbekistan abdumannonhasanov3137@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 811.512.133'28

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Hasanov A.M. Adabiy tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda tarixiy so'zlardan foydalanish// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 1 (48). — B. 27-42.

<https://doi.org/10.36078/1678946444>

Received: December 21, 2022

Accepted: February 17, 2023

Published: February 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Annotatsiya. Maqolada til leksikasidagi bo'shliqlarni tarixiy so'zlar bilan to'ldirish masalalasi tahlil qilingan. Leksik bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyatiga ega bo'lgan so'zlarni tarixiy manbalardan izlab topish va bugungi kundagi muayyan ahamiyatli tushunchani nomlash uchun safarbar etish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri. Chunonchi, tilni asrlar osha barqaror leksik fond bilan saqlanib qolishi diaxron va sinxron leksika mushtarakligiga va muntazamligiga bog'liq. Ushbu maqola orqali o'zbek adabiy tili leksikasini ichki manbalar bilan boyitish masalalarini o'rganishga va mazkur jarayonda tarixiy so'zlarni til leksikasida qayta faollashtirish muammolariga e'tibor qaratilgan. Tarixiy davrda qo'llanilgan ayrim so'zlarning bugungi kunda o'z ifodachisi bo'lmagan tushunchalar — leksik bo'shliqlarni nomlash imkoniyatlari xususida ayrim mulohazalar bildirilgan. Tarixiy davrda qo'llanilgan va bugungi kunda qo'llanilishdan to'xtagan ayrim so'zlarning arxaiklashishi va bunga sabab bo'luvchi omillar haqida ham ba'zi fikrlar yuritilgan. Tadqiqotning maqsadi sifatida bunday so'zlarni bugungi so'zlashuv jarayonlarida ham ommalashtirish va shu orqali ularni til leksikasida qayta faollashtirish haqida muhim tavsiyalar berilgan. Tahlilga tortilgan so'zlarning lisoniy va ijtimoiy ahamiyatini tavsiflash orqali ularning bugungi kundagi lingvistik ahamiyati ko'rsatilgan. Semantik tahlil va qiyoslash usuli orqali mazkur so'zlarning leksik bo'shliqlarni to'ldirishdagi imtiyozli jihatlari tavsiflanib, ularni adabiy tilning me'yoriy lug'atlariga kiritish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bunday tarixiy so'zlarni til leksikasida qayta faollashtirishning milliy va amaliy ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: leksik bo'shliq; tarixiy so'zlar; leksik bo'shliqni to'ldirish; nomsiz tushuncha; nominatsiya; arxaiklashuv; diaxron leksika; sinxron leksika.

Аннотация. Данное исследование направлено на заполнение пробелов в лексике историческими словами. Одна из важных задач языкознания состоит в том, чтобы найти в исторических источниках

слова, способные заполнить лексические пробелы, и использовать их для наименования определенного важного на сегодня понятия. Например, сохранение языка с устойчивым лексическим фондом на протяжении веков зависит от общности и регулярности диахронической и синхронической лексики. В статье было уделено внимание изучению вопросов обогащения лексики узбекского языка внутренними источниками и проблемам реактивации исторических слов в лексике языка в этом процессе. Были высказаны некоторые замечания о возможностях именования понятия — лексических пробелов, не являющихся репрезентативными для некоторых слов, употреблявшихся в исторический период. Также было высказано мнение об архаизации некоторых слов, употреблявшихся в исторический период и переставших употребляться в наши дни, и факторах, обуславливающих это. В качестве цели исследования были сформулированы рекомендации по популяризации таких слов в современном речевом процессе и тем самым реактивации их в лексиконе языка. Путем описания языковой и социальной значимости анализируемых слов было показано их современное языковое значение. Методом семантического анализа и сопоставления были описаны предпочтительные стороны этих слов в восполнении лексических пробелов и выработаны рекомендации по включению их в стандартные словари литературного языка. Подчеркнута практическая важность реактивации таких исторических слов в лексиконе языка.

Ключевые слова: лексический пробел; исторические слова; заполнение лексического пробела; безымянная концепция; номинализация; архаизация; диахроническая лексика; синхронная лексика.

Abstract. This study focuses on filling the language lexicon gaps with historical words. One of the important tasks of linguistics is to find words from historical sources that can fill lexical gaps and mobilize them to name a certain important concept. The preservation of a language with a stable lexical fund over centuries depends on the commonality and regularity of the diachronic and synchronic lexicon. The study article pays attention to studying the issues of enriching the lexicon of the Uzbek language with internal sources and the problems of reactivating historical words in the lexicon of the language. Some comments were expressed on the possibilities of naming concepts, which do not represent some words used in the historical period. The article provides opinions on the archaization of particular words that were used in the historical period and the factors that caused their latent use; important recommendations were given to popularize such words in modern language lexicon. Through the method of semantic analysis and comparison, the privileged aspects of these words in filling lexical gaps were described, and proposals were developed to include them in the standard dictionaries of the literary language. The national and practical importance of reactivating such historical words in the language lexicon was emphasized.

Key words: lexical gap; historical words; filling lexical gap; nameless concept; nominalization; archaization; diachronic lexicon; synchronic lexicon.

Kirish. Ma'lumki, bugungi kunda til sofligini saqlash, uning diaxron va sinxron leksikasi mushtarakligini ta'minlash tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Zero, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari natijasida xalqaro tillar va ular elementlarining uzluksiz ta'siri til qiyofasining jiddiy o'zgarishlariga sabab bo'layotganligini hech kim inkor eta olmaydi. Bunday vaziyatda til leksikasining tadrijiy rivojlanishini

obyektiv baholash, tahlil qilish va albatta, uning maqsadga muvofiq boyishiga ongli yondashuv ham talab qilinadi. Bunday yondashuvlarning eng maqbuli til leksikasini imkon qadar ichki resurslar orqali boyitishga intilishdir.

Til leksikasining ichki imkoniyatlar asosida boyitish deganda: “1) ichki resurslar asosida soʻz yasash yoʻli bilan leksikaning boyishi; 2) eskirgan, tarixiy, umuman, eski manbalarda boʻlgan lugʻaviy birliklarni ishga solish yoʻli bilan leksikaning boyishi; 3) adabiy til leksikasining dialektal soʻzlar hisobiga boyishi” tushuniladi (27, 128). Til leksikasidagi boʻshliqlarni toʻldirishda ham mazkur imkoniyatlardan foydalanish birlamchi ahamiyatga ega. Zero, tildagi leksik boʻshliq, odatda, shu til egalari tomonidan va ularga maʼlum boʻlgan lingvistik birliklar asosida toʻldiriladi (2, 31).

Muayyan davrdagi til leksikasi taraqqiyotini kuzatish orqali nafaqat tilning tadrijiy rivojlanishini, balki unda hali oʻz ifodachisiga ega boʻlmagan tushunchalarni atash imkoniyatiga ega boʻlgan soʻzlarning paydo boʻlishini tahlil qilish mumkin. Bu kabi kuzatishlar til leksikasining ijtimoiy hayotga munosabatini, tafakkur rivojiga mutanosib taraqqiy etayotganligini va uning ichki resurslar hisobiga boyishida qaysi usullardan unumli foydalanilayotganligini baholashga imkon beradi.

Dunyo tilshunosligida bu kabi tahliliy kuzatishlar oʻtgan asrda ancha ommalashgan (7; 8; 12; 16). Buning natijasida til leksikasi rivojiga taʼsir etuvchi turli omillarni tavsiflashga va ularni maqsadga muvofiq yoʻnaltirishga urinishlar kuzatilgan. Mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlar oʻzbek tilshunosligida ham talaygina. Xususan, XX asr boshlaridayoq yetuk tilshunoslarimiz til leksikasidagi arabcha, forsha soʻzlar miqdori va miqyosiga, shuningdek, oʻsha davrda oʻzga tillardan kirib kelayotgan birliklarga oʻzlarining tanqidiy-tahliliy munosabatini bildirgan; oʻzbek tilining oʻz ichki imkoniyatlari bisyorligi, ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi taʼkidlangan (6, 154).

Til leksikasining umumiy rivojlanish tendensiyalarini baholashda uning muayyan davrdagi oʻzgarishlarini tahlil qilish lozim boʻladi (20, 17). Bu boradagi tadqiqotlar ham milliy tilshunosligimizda mavjud. Xususan, Gʻ. Karimovning “20-30-yillar oʻzbek adabiy tilining rivojlanish masalalari (ot turkumidagi soʻzlar boʻyicha)” nomli nomzodlik dissertatsiyasida tegishli yillarda oʻzbek tili leksikasining boyish jarayonlari atroflicha tadqiq etiladi (15). Muayyan badiiy asarlarda va matbuotda qoʻllanilgan soʻzlarning adabiylashuv jarayonlari haqida mulohazalar bildiriladi. Adabiy til leksikasida barqarorlashayotgan ot turkumiga oid soʻzlarning ifoda imkoniyatlari va leksik tizimni boyitishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Taniqli tilshunos A. Hojiyevning “Sovet davrida oʻzbek adabiy tilining taraqqiyoti” nomli kitobida ham shoʻrolar davridagi oʻzbek tili leksikasining rivojlanishi tahlilga tortilib, til taraqqiyotining tegishli davrida leksik sathda yangi soʻzlarning paydo boʻlishi, ularning adabiy til leksikasiga singib borish jarayonlari va bu jarayonga taʼsir etuvchi omillar chuqur tadqiq etiladi (27, 128–143). Olimning taʼkidlashicha, oʻzbek tili leksikasi sobiq shoʻrolar davrida ancha jadal rivojlangan. Xususan, oʻz ichki imkoniyatlari asosida rivojlanishi natijasida tilning affiksatsiya va kompozitsiya usullari orqali koʻplab yangi soʻzlar yaratilgan va keng

iste'molga kirib borgan. E'tiborlisi, sho'rolar davrida birorta so'z yasovchi morfema boshqa tillardan o'zlashtirilmagan (27, 124). Chunki o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlari o'z leksikasini to'kislalashtirishda yetarlicha imkoniyatlarga ega.

Olimning kuzatishicha, sobiq sovet davridagi o'zbek tilining leksik taraqqiyotida o'zga tillardan so'z o'zlashtirishda rus tilining ta'siri yaqqolroq namoyon bo'ldi. Chunki, hukmron mafkura va siyosat ta'sirida bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi. Lekin tan olish kerakki, til leksikasining ichki imkoniyatlar asosida rivojlanishiga hech qaysi til mutlaq ta'sir o'tkaza olmaydi. Zero, bunga til egalari bo'lgan jamiyat ham jiddiy qarshilik ko'rsatadi. Ayni shu jihat tilni asrlar osha har qanday lisoniy ta'sir va tajovuzlardan himoyalab turadi (18, 26).

Yetuk tilshunos olim N. Mahmudovning "O'zbek tili lug'at boyligi rivojida faollashgan jarayonlar" nomli maqolasida ham til leksikasining so'nggi yillardagi o'zgarishlari tizimli tahlil qilingan. Olim mustaqillik yillarida o'zbek tili leksikasining o'z ichki imkoniyatlari va qonuniyatlari asosida rivojlanayotganligini e'tirof etar ekan, bu rivojlanish va tabiiy taraqqiyot ayni mustaqillik sharofati ekanligiga diqqat qaratadi. Sobiq sovet davrida yuritilgan g'irrom siyosat, mafkuraviy tazyiqlar ta'sirida ko'pgina o'zbekcha so'zlarga **eski, diniy, mafkuraga yot** (ta'kid bizniki. — A. H.) deb qaralishining barham topganligini asoslar ekan olim oldindan tilimizda qo'llanilgan ko'plab so'zlarning bugungi so'zlashuv jarayonlarida oldingidek o'z (ijobiy, asl) ma'nolari bilan ishlatilayotganligini e'tirof etadi (19, 3–16).

Jamiyatning tinimsiz taraqqiyoti natijasida paydo bo'layotgan ko'plab tushunchalarni nomlashda, tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish bugungi kunda ancha barqarorlashib borayotganligini ta'kidlar ekan, olim tilda so'z yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya va semantik usulda so'z yasalishining mustaqillik yillarida ham yangi so'z hosil qilishning asosiy usuli sifatida saqlanib qolganligini qayd etadi. Xususan, *-noma*, *-aro*, *no-*, *-lashtirish* kabi so'z yasovchi qo'shimchalarning so'nggi yillarda ancha faollashganligini faktik misollar orqali tasdiqlaydi.

N. Mahmudovning ta'kidlashicha, sobiq sho'rolar davrida qo'llanilishi chegaralangan yoki mafkuraviy tazyiqlarga ko'ra salbiy bo'yoqli so'z sifatida qaralgan ko'plab leksik birliklar mustaqillik yillarida oldingi asrlardagi kabi o'z ma'nolari bilan so'zlashuv jarayonlarida keng iste'foda etilmoqda. Shu tarzda ko'plab "tirilgan" so'zlarimizni tahlil qilar ekan olim tilga sun'iy aralashuv, ayniqsa, mafkuraviy tazyiqlar orqali leksik sathni o'zgartirishga intilish doim ham kutilgan natijani bermasligini e'tirof etadi.

Semantik usulda yangi tushunchalarni nomlash masalalarini tahlil qilar ekan olim, qayta qo'llanishga o'tayotgan so'zlarning oldingi ma'nolari bilan bir qatorda yangi, zamonaviy tushunchalarni ham nomlashda katta imkoniyatlarga ega ekanligini *boy*, *millioner*, *savdogar*, *unsur*, *ishbilarmon*, *mulkdor*, *zobit* kabi so'zlar semantikasidagi o'zgarishlarni izohlash orqali tushuntirib beradi. Olim o'zga tildan kirib kelgan va xalq jonli so'zlashuv nutqidan muqim joy olgan o'zlashma so'zlarga ortiqcha g'ashlik bilan qarash ham unchalik to'g'ri emasligini ta'kidlaydi. Tillararo ta'sirlashuv va globallashtirish sharoitida barcha tillar leksikasida sodir bo'layotgan bu kabi

jarayonlar tilning tabiiy rivojlanishi bilan hamohang ekanligini qayd etgan holda, har bir tilning o'z sofligini saqlash uchun yetarli darajada so'z yasash tizimlari mavjudligini va ularning doimiy ishlab turganligini eslatib o'tadi. Olimning umumlashma xulosasiga ko'ra, o'zbek tilidagi leksik o'zgarishlar va rivojlanishlar mustaqillik yillarida milliy va lisoniy jihatdan muvofiqlashib, to'g'ri va maromli o'zanlarga tushib olgan (17, 156).

Yana bir tilshunos olim Y. Odilovning "Globallashuv davri publitsistikasi tilining taraqqiyoti" nomli monografiyasi ham o'zbek tilining so'nggi yillardagi leksik o'zgarishlari tadqiqiga bag'ishlangan. Olimning kuzatishicha, so'nggi yillarda *-chi*, *-lik*, *-noma*, *-dosh*, *-ma*, *-mand*, *-li*, *-iy*, *-viy*, *-bop*, *-la*, *no-*, *-lan*, *-lash(uv)*, *-lashtirish* singari qo'shimchalar yordamida ko'plab yangi so'zlar yaratilgan (21, 17). So'nggi yillarda til leksikasidagi o'zgarishlar, asosan, til rivojining tarixiy-tadrijiy taraqqiyotiga uyg'un tarzda kechmoqda. Til leksikasida yangi so'z yasashida morfologik va sintaktik usullar faolligi saqlanib qolmoqda.

Olimning qayd etishicha, publitsistik uslubda so'nggi yillarda *-mand* (hojatmand, ehtiyojmand), *-lash* (integratsiyalash, dasturlash), *-lashtirish* (mahalliyashtirish, legallashtirish) kabi avval nafaol bo'lgan qo'shimchalar yangi so'zlar yasashida ancha faollashgan. Sintaktik so'z yasashida **o'zlashma so'z + o'z so'z** (*videomurojaat*, *bioyonilg'i*, *vebsahifa*) va **o'z so'z + o'zlashma so'z** qolipidagi yasalmalar miqdori ancha ko'paygan. Tadqiqotchining fikricha, mazkur davrda kalkalash yordamida hosil qilingan so'zlar ham talaygina (*videonablyudenie* — *videokuzatuv*, *MasterClass* — *mahorat darsi* va sh.k.)

Tilshunoslikdagi ustuvor yondashuvlarga muvofiq qisqartma so'zlarning yangi so'z yasash hodisasi emasligini e'tirof etar ekan olim ayrim qisqartmalarni (masalan, *Kibo* — *Kinder* va *bola* so'zlarining birinchi bo'g'inlaridan iborat yasalma; *Artel* — *Ortiqxo'jaev* (*Artikxudjaev*) va *elektronika* so'zlarining birinchi bo'g'inlaridan iborat birlik) yangi tushunchalarning oti sifatida baholashga harakat qiladi. Biroq bu kabi birliklar til egalari tomonidan yasalma deb baholanmasligi, chunonchi, yasovchi morfemalarga ajratilmasligi tabiiyroq (mazkur yasash haqida ma'lumotga ega bo'lgan kam sonli kishilar bundan mustasno, albatta).

Til leksikasida qayta faollashgan so'zlar haqida mulohaza yuritir ekan tadqiqotchi *dovon*, *vazir*, *tuman*, *viloyat*, *hokim*, *hokimiyat*, *qurultoy* kabi so'zlarning mustaqillik yillarida qayta iste'molga kirib kelganligini misol sifatida keltiradi. Shuningdek, *karvonsaroy* so'zining madaniyat saroyi ma'nosini kasb etganligi haqida ham mulohazalar bildiradiki, bu fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Illustrativ misol sifatida keltirilgan "*Xalqaro madaniyat karvonsaroyida* "*Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni*"ga bag'ishlab, "*Biz baxtli bolalarmiz*" nomli ko'rgazma ochildi" gapida ham *karvonsaroy* so'zining noo'rin qo'llanganini (aslida, *saroy* deb qo'llash to'g'ri ekanligini) sezish mumkin.

Olimning kuzatishicha, istiqlol yillarida ko'pgina so'z shakllari, grammatik birliklar leksemalashuvi ham sodir bo'lgan. *Hisobvaraqa*, *turarjoy*, *surishtiruv* kabi birliklarning alohida leksemaga aylanganligini olim faktik misollar orqali ko'rsatib bergan.

Ma'no taraqqiyoti natijasida ayrim so'zlarning yangi tushunchalarni nomlashi borasidagi fikrlari orqali olim *loyiha*, *ilova*, *vakillik*, *manzilli*,

maqsadli, ochiq, bandlik, tarmoq, dastur, dasturchi, dasturlash, tugmacha kabi soʻzlarning yangi tushunchalarni atashga xoslanib borayotganligini publitsistik matnlardagi gaplar asosida tahlil qilishga, tasdiqlashga harakat qiladi.

Umuman, olimning fikriga koʻra, til leksikasidagi boyish, toʻkislashish jarayonlari soʻnggi yillarda ham tadrijiy davom etmoqda. Bu oʻzgarishlarni davr koʻzgusi hisoblanuvchi davriy nashrlar va ulardagi publitsistik matnlar ham tasdiqlay oladi. Bu oʻzgarishlar til leksikasini oʻz ichki imkoniyatlari va qonuniyatlari asosida rivojlanayotganligini obyektiv baholashga imkon beradi. Bir soʻz bilan aytganda, olim istiqloq yillarida oʻzbek tili leksikasi tartibli va tizimli tarzda rivojlanishda davom etayotganligini qayd etadi (21).

Yuqoridagilardan maʼlum boʻladiki, til leksikasini ichki imkoniyatlar bilan boyish jarayonlarini oʻrganish milliy tilshunosligimiz uchun yangilik emas. Biroq kuzatishlar bu boradagi tadqiqotlarning, odatda, baholash, tahlil qilish koʻrinishida boʻlganligini koʻrsatadi. Amaliy ahamiyatli, xususan, tavsiyaviy koʻrinishdagi ishlarning kamligi tilshunoslikda oʻziga xos muammolarni yuzaga chiqaradiki, bunday muammolarning oldini olish uchun, albatta, til leksikasini oqilona boyitish borasida ham tilshunoslarning tegishlicha taklif va tavsiyalariga ehtiyoj tugʻiladi. Bizning ushbu maqolamizda til leksikasini ichki imkoniyatlar bilan boyitishda tarixiy soʻzlarning imkoniyatlarini oʻrganishga diqqat qaratildi (tahlilga tortiladigan birliklarning bugungi kunda ham ayrim manbalarda, shevalarda saqlanib qolganligi eʼtiborga olinib, ularni arxaizm emas, tarixiy soʻz (istorizm) deb atash lozim topildi). Chunki tarixiy soʻzlarni bugungi nutq jarayonlarida faollashtirish ularning yosh (va nomutaxassis) kishilarga ham tushunarli boʻlishiga xizmat qiladi. Shu paytgacha bunday yondashuvlarda aynan tarixiy soʻzlar bilan til leksikasida oʻz ifodachisiga ega boʻlmagan tushunchalar — leksik boʻshliqlarni toʻldirishga alohida eʼtibor qaratilmaganligi mavzuning yangiligini tavsiflaydi.

Asosiy qism. Tilning tarixiy davrlariga xos va bugungi kunda qoʻllanilishdan toʻxtagan (yoki nafaol tarzda uchraydigan) soʻzlarni faollashtirish til lugʻatini ichki imkoniyatlar asosida boyitishning bir usuli sifatida muayyan lingvistik ahamiyatga ega.

Odatda, til leksikasining yashovchanligi, asrlar osha til egalariga xizmat qilishda davom etishi unda qoʻllaniladigan soʻzlarning muhim, hayotiy ahamiyatga ega tushunchalarni ifodalashiga bogʻliq (16, 131). Muayyan tushunchaning biror davr mobaynida ahamiyatsizlanishi yoki qoʻllanmasligi shu tushunchani va uning nomini yoddan koʻtarilishiga sabab boʻladi.

Muayyan narsa (yoki tushuncha)ga oʻxshash boshqa yangi va muqobil narsaning vujudga kelishi (yaratilishi) hamda keng ommalashishi ham uning nomining nafaollashishiga (yangisining alohida nomlanib, til egalari nutqida faollashishiga) sabab boʻlishi mumkin. Yangi yaratilgan narsa (yoki tushuncha)ning ancha qulay (yoki ommabop)ligi uning eski muqobil tushuncha oʻrnini egallashiga imkoniyat beradi.

Milliy kiyimlarimiz orasida *palto* soʻzi kirib kelishidan bir necha asr oldin issiq qishki kiyim mavjud boʻlgan va, tabiiyki, u ham oʻz nomiga ega boʻlgan. Mazkur kiyim *epkin* (8, 497) soʻzi orqali ifodalangan. Bu soʻzning

issiq kiyim ma'nosida qo'llanilgani A. Navoiy asarlarida ham kuzatish mumkin:

*O'yladurkim, ignini hanno uza qilmish nigor,
Ulki gulgun ko'nglak uzra to'nin epkin aylamish* (9, 271).

Fan-texnika rivoji sabab qishki issiq kiyimlarning zamonaviy ko'rinishlari paydo bo'lishi va tarqalishi sabab mazkur kiyim va uning nomi tarix qa'rida qolib ketgan.

Xalq hayotida muayyan tushunchaning biror davrda qo'llanilmasligi shu tushuncha nomining ham eskirishiga, arxaiklashishiga sabab bo'ladi. Zero, til ajdodlardan avlodlarga bor va qo'llanilayotgan birliklari bilangina meros bo'lib qoladi. Qo'llanilishdan qolgan birliklar esa tarix qa'rida nafaol unsur sifatida qolib ketishga mahkum. Biroq tarixiy manbalar orqali tanishib, ularni ham qayta jonlantirish, nutq jarayonlarida qo'llab, ularga qayta hayot bag'ishlash mumkin (12, 158). Bu esa tilning diaxron va sinxron leksikasi uyg'unligini ta'minlashda ham tegishli ahamiyatga ega bo'ladi.

Mustaqillik yillarida tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida boyishiga muayyan sharoit yaratildi. Shuning natijasi o'laroq til tarixining muayyan davrida qo'llanilgan lug'aviy birliklarning muayyan nomsiz tushunchalarni atash uchun safarbar etish ancha jonlandi (17, 157). Mazkur holatning, albatta, ijobiy jihatlari ko'proq. Chunki har qanday til leksik taraqqiyot jarayonida o'z lug'at boyligini o'zgartirib turar ekan, muayyan katta davr oralig'ida tilning muayyan unsuri hisoblangan qaysidir so'zlarning qo'llanilishi susayib, tushunilishi qiyin bo'lgan birlikka aylanishi kuzatiladiki, bunday birlikning qayta faollashishi, "tirilishi" tilning zamonlararo muntazamligi va barqarorligi uchun ham ahamiyatlidir.

Biz quyida tilimizning tarixiy davrlarida qo'llangan va bugungi kunda nafaol bo'lgan ayrim so'zlarning adabiy tildagi tegishli leksik bo'shliqni to'ldirish imkoniyatlari haqida ayrim mulohazalarni bayon etamiz.

Ko'pchilikka ma'lumki, turkiy til leksikasi haqida eng "ko'p va xo'b" lisoniy ma'lumotlar beruvchi manba, shubhasiz, M. Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridir. Mazkur asarda qayd etilgan ayrim so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik bo'shliq hisoblanuvchi ko'pgina tushunchalarni nomlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Devonda *alin* so'zi "tog'dagi yumaloq va baland joy" ma'nosida kelishi qayd etilgan (26, 44). Mazkur tushuncha bugungi kunda adabiy til leksikasida o'z ifodachisiga ega emas. Zero, *cho'qqi* so'zi tog'ning baland va uchqur (toshli) qismini ifodalaydi. *Adir* deganda esa tog'ning etak yoki pastki qismidagi toshsiz tomoni tushuniladi. Demak, tog'ning tepa qismi uchqur emas, dumaloq (yalpoq) shaklda bo'lsa, uni *alin* deb atash mumkin. Barchaga ma'lumki, tepa qismining *cho'qqi* shaklida bo'lishi tog'ning umumiy (va asosiy) xususiyati emas. Ya'ni, tog'ning baland qismi yalpoq (*cho'qqisiz*) shaklda ham bo'lishi mumkin. Bu esa mazkur tushunchani atash jihatidan *alin* so'zining ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Eski turkiy tilda *bag'ram* so'zi "elangan, mayin qum" ma'nosida qo'llangan (26, 192). Bugungi kunda qurilishda "pesok" deb ruscha iste'foda etilayotgan qurilish ashyosini nomlashga imkoniyatli bu so'z ham adabiy til leksikasiga kiritilishi mumkin. Buning natijasida *shag'al*, *qum*, *pesok* atamalarining bir-biridan farqlanishiga, shuningdek, *pesok* so'zining

o'zbekchalashishiga, eng muhimi, o'z nomini topa olmagan tegishli tushunchaning nomlanishiga erishish mumkin.

Safarga chiqayotgan kishining o'z yaqinlariga biror narsa ilinishi, sovg'a sifatida olib borishi o'zbek xalqining qadimiy qadriyatlaridan biridir. Bu an'anada tuhfa sifatida olib borilayotgan narsa eski turkiy tilda *belak* deb nomlangan (26, 155). Bu xil sovg'aning *tavan*, *tugun*, *sarpo* kabilardan farqli ekanligi uning alohida so'z bilan nomlanishini taqozo etadi. Bizningcha, eski turkiy tilda qo'llanilgan *belak* so'zini hozirgi adabiy tildagi tegishli leksik bo'shliqni to'ldirish uchun qo'llash mumkin.

Qish-qirovli kunlarda qo'l (yoki oyoq) terisining ko'p sovqotishi (yoki suv tegaverishi) natijasida yorilishi (yara hosil bo'lishi) kuzatiladi. Bu yara u qadar xavfli emas, biroq tashqi ta'sirlarga og'riq bilan reaksiya bildiradi va kishini azoblaydi. Mazkur yara turi ko'pchilikka tanish bo'lsa-da, alohida so'z bilan nomlanmagan. Bizningcha, bu yara turini eski turkiy tildagi nomi *bichg'il* so'zi bilan nomlash mumkin (26, 191). *Bich* so'zining kesmoq, qirqmoq ma'nolariga egaligi ham bu so'zning tushunilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbek xalqida azaldan yangi oilani qo'llab-quvvatlashga jiddiy e'tibor qaratiladi. Hatto kelin tarafning yaqinlari, xususan, uning ota-onasi o'z qiziga kiyim-kechaklardan sep qilib uzatishadi. Bugungi kunda bu an'ana biroz dabdabali tus olgan: buning natijasida hatto kuyov tarafdagilar barcha uy-ro'zg'or uchun kerakli buyumlar sotib olishni kelinning yaqinlari zimmasiga yuklashi kabi salbiy holatlar ham kuzatilmoqda. Biroq qadimdan mavjud an'anaga ko'ra kelinning ota-onasi o'z ixtiyori bilangina muayyan sovg'alarni yangi oila (kelin-kuyov)ga taqdim qilishlari mumkin. Aksar hududlarda kelinning ota-onasi yangi oilaga yosh qoramol (g'unojin) tuhfa etishadi. Bundan murod yangi oilaning mol-holi ko'payib, davlatmand bo'lishi nazarda tutiladi. Eski turkiy tilda *yo'vash* deb nomlangan (26, 327) bu xil tuhfa hamma zamonlarda ham mavjud bo'lgan. Bizningcha, kelinning yaqinlari tomonidan tuhfa etiladigan kiyimdan boshqa mol (narsa)larni yo'vash tarzida alohida nomlash foydadan xoli emas. Zero bu tushunchani *sep*, *meros*, *mahr* kabi yondosh tushunchalardan farqlash uchun ham alohida so'zning mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq.

Moddaning agregat ko'rinishida shunday holat bo'ladiki, bunda modda suyuq va qattiq orasidagi "uchinchi oraliq" xususiyatiga ega bo'ladi (11, 121). G'o'labop (g'ishtbop, qolipdan chiqqach, shaklini saqlay oladigan) loy, xamir kabi moddalar to qotgunga (qattiq jismga aylangunga) qadar shaklini noqat'iy saqlovchi suyuqlik sifatida ayni agregat holatni namoyon etadi. Moddaning bunday agregat holati eski turkiy tilda *quyuqlik* tarzida nomlangan (26, 385). Bizningcha, bu kabi noyob va zarur ahamiyatli so'zlar ham adabiy tildagi tegishli leksik bo'shliqni nomlash uchun safarbar etilishi kerak.

Bugungi kunda devonxona va hujjatlar bilan ishlaydigan ko'pgina ofislarda shunday anjomlar paydo bo'lganki, ularning ayrimlari qanday nomlanishini hatto ular bilan ishlaydigan xodimlar ham doim yodida saqlay olmaydi. *Skrashivatel*, *fayl papka* kabi ko'pgina devonxona jihozlari o'zlarini yaratgan millat tilidagi ajnabiy so'zlar bilan ataladi. Ularning nomini to'g'ri aytish uchun ham kamida o'n-o'n besh marta mashq qilish

kerak. Chunki ularning nomi bo'lgan xorijiy so'zlarni talaffuz etish ham, esda saqlash ham oson emas.

Eski turkiy tilda qo'llanilgan *qusurg'a* so'zi qog'oz solinadigan muqovali jihozni nomlashda qo'llanilgan (26, 194). Aslida, devonxona ishlari qadimdan yurtimizda ancha taraqqiy etgan. Qog'oz ishlab chiqarish borasida ham yurtimiz hunarmandlari dunyoga mashhur bo'lishgan. Demakki, qog'oz va boshqa hujjatlarni saqlovchi vositalar ham o'sha davrlardayoq mavjud bo'lgan. Ayni o'sha vositalar vazifasini bajarayotgan zamonaviy devonxona anjomlaridan biriga (masalan, *reestr* deb nomlanuvchi hujjatlarni jamlovchi jildga) *qusurg'a* so'zini kodlashtirish orqali bitta tarixiy so'zimizga hayot bag'ishlash mumkin. Shuningdek, buning natijasida aytishga va eslab qolishga qiynalayotgan bir so'zni talaffuz etishdan ozod bo'lamiz va tegishli tushunchani o'zbekcha nomlashga muvaffaq bo'lamiz.

O'zbek tilida hayvonlarni jins jihatidan farqlab ifodalovchi so'zlar ancha. Ular orasida har ikki jinsdagi jonzotni umumlashtirib nomlovchi so'zlarning yo'qligi ham kuzatiladi. Masalan, qo'y, qo'chqor — Ø, tovuq, xo'roz — Ø va sh.k. Eski turkiy tilda tovuq va xo'roz uchun umumiy nom (giperonim) hisoblanuvchi *taqag'u* so'zi faol qo'llanilgan (26, 178). Bizningcha, bu so'zni bugungi so'zlashuv jarayonlariga ham safarbar etish foydali. Zero, yetti xazinaning biri hisoblanuvchi parrandachilikka ko'pgina xonadonlarda yaxshigina e'tibor qaratiladi. Bu esa *taqag'u* so'zining tegishlicha ijtimoiy-lisoniy ahamiyatga molikligini ko'rsatadi.

Hayvonot dunyosini o'rganishda ularning har birini yoshiga, jinsiga qarab alohida nomlanishi muayyan ahamiyatga ega (1, 16). Bugungi kunda *tovuq* — *jo'ja*, *sher* — *sherbachcha*, *qush* — *polapon* kabi leksemalar paradigmasida *ayiq* — Ø bo'shlig'i mavjudligi ko'pchilikka ayon. Eski turkiy tilda *merdak* (26, 194) so'zi aynan shu bo'shliqni to'ldirib turgan. Bizningcha, "ayiq bolasi" ma'nosini beruvchi *merdak* so'zini adabiy til lug'atlariga kiritish maqsadga muvofiq. Zero, buning natijasida tegishli paradigmadagi leksik bo'shliq o'z ifodachisiga ega bo'ladi.

Shu o'rinda yuqoridagi paradigmatic qator eski turkiy tilda ancha to'kis bo'lganligini tan olish joiz. Hatto yovvoyi hayvonlarning ham yosh xususiyatiga ko'ra detallashtirib nomlanganligini "cho'chqa bolasi" tushunchasining alohida leksema — *cho'pra* so'zi orqali ifodalanganidan ham bilish mumkin (8, 484). Yuqoridagi paradigma asosida aniqlanuvchi cho'chqa — Ø bo'shlig'ini to'ldirishga munosib cho'pra so'zi ham o'zi ifodalayotgan tushunchaning munosib nomi bo'la oladi, bizningcha. Yana shuni ta'kidlash kerakki, eski o'zbek adabiy tili o'z ifoda imkoniyatlari jihatidan ancha to'kis va rangin bo'lgan (3, 6). A. Navoiyning e'tiroficha, hatto hayvon nomlarining zanginligi va mo'lligi ham bu tilning boshqa tillardan ancha ustuvor xususiyatlarga ega ekanligini dalillaydi. Bu esa shu tilning hozirgi ko'rinishini ham takomillashtirish zaruratini dolzarblashtiradi.

Aksariyat qishloq xonadonlarida uy eshigi ustida tokcha qurilgan bo'ladi. Eshik uchun mo'ljallangan devordagi o'rinning biroz baland qoldirilganligi yoki, odatda, eshikning inson bo'yi barobar kaltaroq o'lchamlisi tanlanishi shunday tokchalarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Quruvchilik tajribalaridan ma'lum bo'lgan bu tip tokchalar uy-ro'zg'or

anjomlarining ayrimlarini qo'yish va saqlash uchun munosib joy hisoblanadi. Eski turkiy tilda *seru* (26, 400) deb nomlangan bunday tokchalar bugungi kunda ham aksariyat xonadonlarda mavjud. Bu esa uning nomi bo'la oluvchi *seru* so'zining adabiy til leksikasiga kiritilishini va ommalashtirilishini taqozo etadi.

Suvning ichish uchun yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini baholashda uning buloqdan yaqinda oqib (sizib) chiqqanligi, bir joy (ko'l)da uzoq qolib ketmaganligiga ahamiyat qaratiladi. Xalqda qo'llaniladigan "Yetti yumalab oqqan suv — halol" tarzidagi fikrlardan bilish mumkinki, odatda, oqayotgan suv ichishga yaroqli bo'ladi. Bir o'rinda (ko'l)da uzoq saqlanib turgan suv esa havodagi changlarni yutganligi, qush yoki boshqa hayvonlarning suvlaganligi (yoki suvga oralaganligi) sabab ichishga yaroqsiz bo'ladi. Bunday suv eski turkiy tilda *terkin* deb nomlangan (26, 176). Bizningcha, bu so'zni *zilol*, *oqar* (suv) so'ziga antonim sifatida til leksikasiga kiritish maqsadga muvofiq.

Eski turkiy tilda qo'llangan *tuysuqdi* (26, 391) so'zi ifodalagan "o'ziga qilingan hiyla yoki aldovni bilib qolmoq" tushunchasi ham hozirgi o'zbek adabiy tili uchun leksik bo'shliq hisoblanadi. Insonlar orasida bo'ladigan hazil yoki sinov tarzida uyushtiriladigan turli hiyla yoki aldovlarni sezib qolish, yoxud bu hiylalarga boshqacha harakat orqali javob qaytarish barcha kishilarda boshdan o'tkazilgan. Ayni holatni bildiradigan *tuyqusdi* so'zi kishilar orasida ko'p kuzatiladigan holatni ifodalovchi fe'l sifatida muayyan ahamiyatga ega. *Tuy* (sez) fe'li asosidan tarkib topganligi bu so'zning tushunishli bo'lishiga ham xizmat qiladi. Ayrim qarluq shevalarda bugungi kunda *tuyundi* so'zi "sezib qoldi, bilib qoldi" ma'nosida qo'llanilayotganini ham kuzatish mumkin (4, 289). Bizningcha, mazkur so'z tegishli leksik bo'shliqni to'ldirishga munosib so'z sanaladi.

Bugungi kunda *fontan*, *favvora* nomlari bilan ataladigan qurilmalarda suvning otilib chiqishi va ajib manzara kasb etishi hammaga ayon. Eski turkiy tilda *cho'qrama* so'zi aynan otilib chiqadigan suv ma'nosida qo'llangan (26, 195). *Cho'qlamoq* so'zining bugungi kunda "otish uchun mo'ljalga olmoq" ma'nosida ishlatilishi ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Bugungi kundagi favvoralar ko'rinishida bo'lmasa ham, quvurlardan yoki buloqlardan shiddat bilan otilib chiqayotgan suv o'sha paytlari alohida nomlangan. Biroq sun'iy tarzda, xususan, manzara va ko'rkamlik hosil qilish uchun maxsus favvoralar yaratila boshlangach, mazkur so'z tegishli qurilmani atashga ixtisoslashmagan. Buning, albatta, o'sha davr kishilarining so'z tanlash va qo'llash bilan bog'liq lisoniy irodalariga bog'liq bo'lganini ham e'tirof etish lozim. Zero, har bir tushunchani nomlashda til egasining lisoniy idroki va tanlovi, albatta, spontan (tasodifiy) kechadi (5, 49). Bizningcha, *cho'qrama* so'zini manzara uchun yaratilgan favvoralarni atashga emas, umuman, otilib chiqayotgan suv (yoki boshqa suyuqlik)ni nomlashga safarbar etish maqsadga muvofiq sanaladi.

Hammaga ayonki, suvga yengil, g'ovak jism botirilganda, u suvga cho'kmaydi. Majburlab botirilganda esa suv uni siqib chiqaradi. Fizikada Arximed kuchi deb nomlanadigan ta'sir — botirilayotgan jism hajmiga teng suvning og'irlik kuchi shu jismni tepaga ko'tarishga intiladi. Suvga botirilgan koptok, yog'och kabilarning holatini kuzatib, holni ko'p uchratganmiz. Mazkur holatda botirilayotgan jismning suv yuzasiga qaytib

chiqishi eski turkiy tilda *balqimoq* (23, 55) soʻzi bilan ifodalangan. Bugungi kunda bu soʻzning maʼno oʻzgarishlari ancha kengaygan boʻlib, yuqoridagi maʼnosi ancha xiralashgan. Bizningcha, *balqimoq* soʻzining yuqoridagi maʼnosi ham adabiy til lugʻatlarida qayd etilishi lozim. Natijada bu soʻzning etimologik jihatlar ham oydinlashadi va tegishli atovchisiz tushunchaning nomlanishi taʼminlanadi.

Holatga munosabatni bildiruvchi ravish yasovchi —in (-un) qoʻshimchasi yordamida hosil qilingan *gurkun* (23, 87) soʻzi ham eski turkiy tilda faol qoʻllangan. *Gurkiram* feʼli asosida shakllangan bu soʻz “baravj oʻsayotgan, gurkirab rivojlanayotgan” maʼnolariga ega. Tegishli soʻz yasash tipidagi leksik boʻshliqni toʻldiruvchi bu soʻz ham lugʻatlarga kiritilishi lozim. Buning natijasida tegishli belgi-xususiyat oʻz atovchisiga ega boʻladi.

Savdo-sotiq jarayonida xaridorning savdodan aynishi bilan bogʻliq holatlar koʻp kuzatiladi. Olinayotgan mahsulotning sifatsiz yoki qimmat baholanishi bunga sabab boʻlishi mumkin. Eski turkiy tilda savdodan aynish, kelishuvdan qaytish *iqola* soʻzi bilan ifodalangan (8, 75). Bugungi kunda alohida leksemaga ega boʻlmagan bu tushunchani nomlashda bizningcha, *iqola* soʻzidan foydalanish mumkin. Bu soʻz Alisher Navoiy asarlarida ham qoʻllanganini kuzatish mumkin:

*Gavhari bayʼin iqola ayladi,
Tuttiyu vajhin havola ayladi* (10, 155).

Kundalik hayotda koʻp uchraydigan bu kabi tushunchalarni alohida soʻz bilan nomlanishi, albatta, til rivoji uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Eski oʻzbek tilida qoʻllanilgan *kungranmoq* (8, 138) soʻzi ham bugungi kunda oʻzbek tili leksikasi uchun boʻshliq hisoblanuvchi tegishli tushunchani nomlaydigan soʻzdir. Bu soʻz “gapini oʻtkazolmay qiynalmoq” maʼnosiga ega. Kishilarning oʻz gapini oʻzgaga tushuntirishi, maʼqullatishi muloqot jarayoni uchun juda muhim hisoblanadi. Shu bois, soʻzlovchi oʻz fikrini imkon qadar tinglovchiga “yuqtirish”ga tirishadi (hayotda hatto yolgʻon yoki oʻz manfaatiga xizmat qiladigan fikrini ham turli yoʻllar bilan tinglovchiga uqtirishga intiladigan kishilarni uchratish mumkin).

Kungranmoq soʻzi oʻz maʼnosi jihatidan *avramoq*, *uqtirmoq*, *taʼkidlamoq* soʻzlariga yaqin. Biroq *avramoq* soʻzida soʻzlovchining “yolgʻon yoki oʻz manfaatiga xizmat qiluvchi fikrni uqtirishga intilish” semalari boʻrtib turadi. *Uqtirmoq* soʻzida “gapni tushuntirishdagi qiyinchilik” semasi sayoz namoyon boʻladi. *Taʼkidlamoq* feʼlida esa soʻz (gap)ni urgʻulab aytish nazarda tutiladi. Mazkur soʻzlardagi maʼnoviy oʻzgachaliklar *kungranmoq* soʻzining alohida sememani ifodalayotganini koʻrsatadi. Bizningcha, bu betakror soʻz adabiy til lugʻatlariga kiritilishi va shu orqali tilda ommalashtirilishi maqsadga muvofiq.

Eski oʻzbek tilida qoʻllanilgan *churkamoq* soʻzini buyuk shoir Alisher Navoiy asarlarida ham uchratish mumkin. Shoir gʻazallarida bu soʻz 1) oʻramoq; 2) kuydirmoq, qovjiratmoq maʼnolarida ishlatilgan (8, 482). Hozirgi kunda ayrim shevalarda, xususan, turk-kaltatoy shevasida bu soʻz *chuykamoq* shaklida qoʻllaniladi va “yogʻda bir oz qovurish” maʼnosini ifodalaydi. Mazkur soʻz ham oʻzi ifodalaydigan tushunchaning munosib ifodachisi. Shu bois uni ham adabiy til lugʻatlariga kiritish mumkin.

Eski o'zbek tilida qo'llanilgan so'zlardan biri *mijmara* "xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish" ma'nosida ishlatilgan (8, 303). Bugungi kunda isiriq, archa yaprog'i kabilarni tutatib, uy (va xona)larni dezinfeksiya qilish faqat irim-sirimgina emas, amaliy jihatdan-da foydali va shu bois bu odat muhim qadriyat sifatida hanuz saqlanib kelmoqda. Mazkur amalda tutatqi turli hasharotlarga salbiy ta'sir qiladi va ularni uy (xona)dan qochishi (bezishi)ga sabab bo'ladi. Tutatqi kuyib, tutashi uchun u solingan idish qizishi yoki ichiga cho'g' solingan bo'lishi lozim. Shu bois bu jarayonda tutatqi uchun muayyan metall idish — *mijmara* kerak bo'ladi. Bizningcha, *mijmara* so'zini ham muhim tushunchaning nomi sifatida adabiy til lug'atlariga kiritish va ommalashtirish lozim. Zero, tutatqi bilan bog'liq qadriyatlar o'zbek xalqida azaldan mavjud bo'lgan va hozir ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda atrof-muhitning, xususan, ko'chalarning tozaligi va orastaligi uchun obodonlashtirish xodimlari mas'ul qilib belgilangan. Aynan ko'chalarni supuruvchi, tozalovchi ma'nosini beruvchi alohida so'z o'zbek tili leksikasida mavjud emas. *Farrosh* so'zi "xona, ofis (yoki hovli) kabi kichik hududning tozaligini ta'minlovchi kishi" ma'nosiga ega. Bizningcha, obodonlashtirish boshqarmasida ishlaydigan va ko'chalarni tozalashga xizmat qiladigan kishilarni *obodgar* (8, 313) tarzida atash o'rinli (bu so'z tojik tilida ham shu ma'noda qo'llaniladi). Bu so'z tarkibidagi *obod* va *gar* morfemalari uning kishilarga oson tushunilishini ta'minlaydi. Qolaversa bu so'z Alisher Navoiy asarlarida ham shu ma'noda qo'llangan:

Yana Asqalinus irshodidur,
Ki: "Obodgar elga shah dodidur" (9, 477).

Bu esa mazkur so'zning adabiy til lug'atlariga kiritilishiga imtiyoz beradi.

Eski o'zbek tilida qo'llangan *otiqmoq* (8, 335) so'zi ham hozirgi o'zbek adabiy tilidagi tegishli leksik bo'shliqni to'ldirish imkoniyatiga ega. "Nomi mashhur bo'lmoq, elga tanilmoq" ma'nolarida qo'llanilgan bu so'z Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi:

Bo'lsa edi shammayi parvoyi nangu nomdin,
O'tlanib badmastlig' birla otiqmoq ne edi? (10, 331).

Mazkur so'zni *ot+iq* shaklidagi morfemalardan tuzilganligi va bugungi kunda ayrim shevalarda uchrashi ham uning adabiylashuviga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarning nomlari ham tilda doimiy yashashga haqli. Zero, tilning kumullyativ funksiyasi ham xalq hayotiga oid bo'lgan urf-odatlar va rasm-rusmlarni o'zida mujassalashtirishi va asrlar osha saqlab kelishi bilan tavsiflanadi. Xalq hayoti bilan bog'liq milliy udumlar va urf-odatlar haqida adabiy til leksikasi yetarlicha ma'lumotlar bera oladi. Shuningdek, ayrim rasm-rusmlar nomining nafaol qo'llanilishi va shu bois uni ifodalaydigan so'zning unutilishi ham kuzatilishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. Xususan, marhumni davn etish marosimida tobutga yopiladigan mato — *tobutpo'sh* bugungi kunda tilda u darajada faol va tushunarli emas. A.Navoiy asarlarida qo'llanilgan *tobutpo'sh* (8, 238) so'zi

bugungi kunda ayrim shevalarda boshqacha soʻz bilan ifodalanishini kuzatish mumkin. Masalan, Sayram shevasida bu tushuncha *məpə* (14, 124) deb ataladi (bu soʻz qozoq va boshqa turkiy xalqlarda ham qoʻllaniladi). Bu tushuncha boshqa oʻzbek shevalari (va urugʻlari) orasida ham uchraydi. Biroq adabiy til leksikasida uni nomlovchi leksema yoʻq. Bizningcha, *tobutpoʻsh* soʻzini tegishli tushunchaning nomlovchisi sifatida izohli lugʻatlarga kiritish joiz. Bu soʻzning *tobut* va *poʻsh* morfemalaridan tuzilganligi uni osonlikcha tushunilishiga imkoniyat beradi.

Biror ish yoki maqsad bilan safarga chiqilayotganda shu ishning qanday muddatga choʻzilishi va safarda qanday narsalarga ehtiyoj tugʻilishi oldindan oʻylab koʻriladi hamda zarur narsalar hozirlanadi. Ayniqsa, shu muddat davomida zarur boʻladigan yoʻl ozuqasi ham doim safar qiluvchining diqqat markazida boʻladi. Choʻpondan tortib chegarachigacha foydalanadigan “yoʻl ozigʻi” tushunchasi koʻpchilikka tanish. Biroq bu tushuncha adabiy tilda alohida soʻz bilan nomlanmagan. Eski oʻzbek tilida *tusha* (8, 271) deb atalgan bu tushuncha bugungi kunda ham muayyan ahamiyatga ega boʻlgan tushunchani ifodalaydi. Bizningcha, bu soʻzni adabiy tilning meʼyoriy lugʻatlariga kiritish va ommalashtirish foydadan xoli emas.

Maʼlumki, itning, ayniqsa yosh kuchukning boʻyni yoʻgʻon boʻladi hamda bosh oʻlchami va boʻyin oʻlchami orasidagi farqning sezilmas ekanligi kuzatiladi. Bunday itlar uchun moʻljallangan boʻyinbogʻ itni tutib turishda u qadar ishonchli boʻlmaydi. Shu bois bunday boʻyinbogʻlarni boshdan sirgʻalib chiqib ketmasligi uchun unga yondosh tarzda “belbogʻ” ham qoʻshiladi va itning bel qismidan aylantirib bogʻlanadigan “belbogʻ” va boʻyinbogʻ bir-biriga mataladi. Bu “yangi, takomillashtirilgan” anjom ancha ishonchli va uni koʻcha-koʻyda yetaklanib yurgan itlarda uchratish mumkin. Mazkur anjom oʻzbek tilida oʻz nomiga ega emas.

Qishloq hududlarida ham qopagʻon itlarni shu tarzda bogʻlanishini uchratish mumkin. Bizningcha, Alisher Navoiy asarlarida qoʻllangan *maras* (8, 233) soʻzini mazkur anjomni nomlashga safarbar etish mumkin. “It boʻyniga bogʻlanadigan arqon” maʼnosiga ega boʻlgan bu soʻz hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi tegishli leksik boʻshliqni toʻldirishga xizmat qila oladi. Shuningdek, buning natijasida:

*Itning oʻldi Navoiy, ey chobuk,
Boʻynigʻa muhkam ayla halqa maras* (10, 155),

— kabi mumtoz sheʼriyatdagi misralarni oson tushunilishiga ham zamin hozirlanadi.

Toʻylarda toʻy egasi (yoki boshqa kishi)ning toʻy bola yoki kelin-kuyovga atab tanga, pul, konfet yoki boshqa shirinliklar sochishi milliy odatlarimizdan hisoblanadi. Bunda sochiladigan narsalarni yosh bolalar terib olishadi. Bunday odatlar koʻpgina hududlarda hali ham saqlanib turibdi. Bu odatda sochiladigan narsalar *sochindi* (26, 179) deb nomlanadi. Soʻz yasash usulining ommabop va keng tushunishli turidan shakllangan bu soʻz eski turkiy tilda ham qoʻllangan. Bizningcha, mazkur soʻzni ham adabiy tilning meʼyoriy lugʻatlariga kiritish mumkin. Zero, u ham milliy qadriyatlarimizning ifodachisi sifatida muayyan lisoniy qimmatga ega.

Xulosa. Yuqorida qayd etildiki, til leksikasining asrlar davomida muayyan barqarorlik va muntazamlik xususiyatlarini saqlab qolishi uning yashovchanligi va sofligida muhim ahamiyatga ega. Shu kabi jihatlariga e'tibor qaratgan holda til tarixining oldingi davrlarida qo'llanilgan va bugungi kunda unitilishga mahkum bo'lgan ayrim so'zlarni til leksikasida qayta faollashtirish muayyan lingvistik ahamiyatga ega. Ayniqsa, bunday tarixiy so'zlarni bugungi kunda o'z nomlovchisi bo'lmagan tushunchalar — leksik bo'shliqlarni nomlash uchun qo'llash ancha yaxshi samara beradi. Chunonchi, o'z ifodachisiga ega bo'lmagan tushunchalarni nomlash imkoniyatiga ega bo'lgan so'zlarning tegishli tushunchani atash imkoniyatlarini tavsiflash va ularni bugungi nutqda ommalashtirish tilning diaxron va sinxron leksikasi mushtarakligiga ham xizmat qiladi. Yuqoridagi kabi so'zlarni tarixiy manbalardan izlab topish va ularni ommalashtirish bo'yicha ham muayyan tadqiqotlar olib borish tilshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda tavsiya etiladigan so'zlarning tez ommalashishi va barqarorlashishi uchun ommaviy axborot vositalari, ziyolilar va keng jamoatchilikning xayrixohligi va tashabbuskorligi talab etiladi. Aks holda, bunday takliflarning amalga oshmasligi tayin. Tilimiz rivoji va sofligi, tarixiyliigi va o'ziga xosligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan har bir kishi, albatta, bu borada o'z hissasini qo'shishga intilishi lozim. Agar biz ajdodlarimiz qo'llagan so'zlar ma'nosini faqat lug'atlardan foydalanib anglaydigan bo'lsak, tilimizning kelajakdagi taqdiri ham shunga monand bo'ladi. Aksincha, tilimizning qadimiy va bugungi holatini uyg'unlashtirishga intilsak, buyuk ajdodlarimiz asarlarini ham kelajak avlod hech qiynalmasdan tushuna olishi mumkin. Bu esa millat farzandi bo'lgan har bir vatandoshimizning ezgu maqsadi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adamska-Salaciak A. Construal of Mental Health Problems in English Learners' Dictionaries // Lexikos, 2021. — № 31. — P. 1-19.
2. Hasanov A. M. Til leksikasida bo'shliqlar // O'zbekistonda xorijiy tillar. — Toshkent, 2022. — № 2 (43). — B. 29-38.
3. Majidovich K.A. Filling Lexical Gaps In The Uzbek Language With Dialectisms (Based On The Turkic-Kaltatoy Dialect) // International Journals of Sciences and High Technologies, 2021. — № 25. — PP. 01-07.
4. Majidovich K.A. Possibilities of Kipchak Dialects in filling the Lexicon of Uzbek // International Journal on Integrated Education, 2021. — № 4. — PP. 287-294.
5. Khasanov A.M. Enrichment of Uzbek lexic reserve with Kypchak dialect / Лингвистические исследования и их использование в практике преподавания русского и иностранных языков, Материалы IV Международной научно-методической конференции посвященной 100-летию юбилею Донецкого национального технического университета. — Донецк, 2021. — С. 84-89.
6. Азимов И. Ўзбек тилини адабий тил даражасига кўтариш йўлидаги ҳаракатлар // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 2014. — № 2. — Б. 152-158.
7. Акай О. М. Онтологические и гносеологические особенности межкузыковых и внутриязыковых лакун // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Лингвистика, 2019. Т.16, № 3. — С. 5-10.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III жилд (Э. Фозилов таҳрири остида). — Т.: "Фан" нашриёти, 1984. — 624 б.
9. Алишер Навоий. Ҳазойин ул-маоний // Мукамал асарлар тўплами, 3-том. — Т.: Фан, 1988. — 575 б.

10. Алишер Навоий. Фавоид ул-кибар // Мукамал асарлар тўплами, 6-том. — Т.: Фан, 1990. 568 б.
11. Билиш фалсафаси (тузувчи ва таржимон Қ. Назаров). — Т.: Университет, 2005. — 324 б.
12. Быкова Г.В. Лакуарность как категория лексической системологии. — Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. — 276 с.
13. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. — М., 1985. — 448 с.
14. Зуфаров С. Ўзбек тилининг Сайрам шеvasи: Филол. фанлари номзоди... дис. — Т., 1966. — 194 б.
15. Каримов Ф. 20-30 йиллар ўзбек адабий тилининг ривожланиш масалалари (от туркумидаги сўзлар бўйича): Филол. фанлари номзоди... дис. — Т., 1972. — 141 б.
16. Кайдаров А. Т. Уйгурские диалекты и диалектная основа литературного языка: Дисс... докт. филол. наук. — Баку, 1969. — 150 с.
17. Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. — Т.: Mumtoz so'z, 2017. — 178 б.
18. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. — Т.: "Mumtoz so'z", 2010. — 288 б.
19. Махмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлиги ривожиди фаоллашган жараёнлар // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 2015. — №5. — Б. 3-16.
20. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1995. — 127 б.
21. Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти. — Т.: "Nodirabegim" нашриёти, 2020. — 140 б.
22. Оруджев А. А. Теоретическое обоснование к "Толковому словарю азербайджанского языка": Автореф. дисс... докт. филол. наук. — Баку, 1962. — 45 с.
23. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. — Т., 2000. — 600 б.
24. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантук (тузатилган ва тўлдирилган иккинчи нашри). — Т.: Ўқитувчи, 1993. — 305 б.
25. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. (5 жилдлик. I жилд. — 680 б.; II жилд. — 672 б.; III жилд. — 688 б.; IV жилд. — 608 б.; V жилд. — 592 б.)
26. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. — Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2017. — 488 б.
27. Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III томлик. 3-том (сўз ясаиши ва лексика). — Т.: Фан, 1991. — 188 б.

References

1. Adamska-Salaciak A. *Lexikos*, 2021. — № 31. — pp. 1-19.
2. Hasanov A. M. *Foreign languages in Uzbekistan*, 2022, No. 2 (43), pp. 29-38.
3. Majidovich K.A. *International Journals of Sciences and High Technologies*, 2021, No. 25, pp. 01-07.
4. Majidovich K.A. *International Journal on Integrated Education*, 2021, No. 4, pp. 287-294.
5. Khasanov A.M. Khasanov A.M. *Lingvisticheskie issledovaniya i ikh ispol'zovanie v praktike prepodavaniya russkogo i inostrannykh yazykov*, Proceedings of the IV International Scientific and Methodological Conference dedicated to the 100th anniversary of the Donetsk National Technical University, Donetsk, 2021, pp. 84–89.
6. Azimov I. *Uzbek language and literature*, 2014, No. 2, pp. 152-158.
7. Akai O. M. *Vestnik Yuzhno-Uralskogo gosudarstvennogo universiteta*, Series: Linguistics, 2019, vol.16, No. 3, p. 5-10.
8. Alisher Navoi's asarlari tilining izoxli lugati (Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi's works), volume III (edited by E. Fazilov), Tashkent, 1984, 624 p.
9. Alisher Navoi. *Mukammal asarlar tuplami* (Collection of selected works), volume 3, Tashkent, 1988, 575 p.
10. Alisher Navoi. *Mukammal asarlar tuplami* (Collection of selected works), volume 6, Tashkent, 1990, 568 p.
11. *Bilish falsafasi* (Philosophy of knowledge), compiler and translator Q. Nazarov, Tashkent: "Universitet", 2005, 324 p.
12. Bykova G.V. *Lakunarnost kak kategoriya lexicheskoy sistemologii*, Blagoveshchensk: Izd-vo BGPU, 2003, 276 p.

13. Humboldt V. *Yazyk i filosofiya kul'tury* (Language and Culture of Philosophy), Moscow, 1985, 448 p.
14. Zufarov S. *Uzbek tilining Sairam shevasi* (Sayram dialect of Uzbek language), doctor's thesis, Tashkent, 1966, 194 p.
15. Karimov G'. 20-30 iillar ŷzbek adabii tilning rivozhlanish masalalari (ot turkumidagi sŷzlar bŷiicha) (Issues of the development of the Uzbek literary language in the 20s-30s (by nouns)), doctor's thesis, Tashkent, 1972, 141 p.
16. Kaydarov A. T. *Uigurskie dialekty i dialektnaya osnova literaturnogo yazyka* (Uyghur dialects and dialectal basis of literary language), doctor's thesis, Baku, 1969, 150 p.
17. Mahmudov N. *Til tilsimi tadqiqi* (Linguistic studies), Tashkent, 2017, 178 p.
18. Mirtojiev M. *Uzbek tili semasiologiyasi* (Semasiology of the Uzbek language), Tashkent, 2010, 288 p.
19. Mahmudov N. *Uzbek tili va adabiet*, 2015, No. 5, pp. 3-16.
20. Nematov H., Rasulov R. *Uzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari* (Basics of system lexicology of the Uzbek language), Tashkent, 1995, 127 p.
21. Odilov Y. *Globallashuv davri publitsistikasi tilining taraqqiet* (The development of the language of journalism in the era of globalization), Tashkent, 2020, 140 p.
22. Orudjev A. A. Teoreticheskoe obosnavanii k "Tolkovomu slovaru azerbaydjanskogo yzyka", extended abstract of candidate's thesis, Baku, 1962, 45 p.
23. Rahmatullaev Sh. *Uzbek tilining etimologik lugati* (Etymological dictionary of the Uzbek language), Tashkent, 2000, 600 p.
24. Khairullaev M., Hakberdiev M. *Mantiŷ* (Logic), revised and supplemented second edition, Tashkent, 1993, 305 p.
25. *Uzbek tilining izoxli lugati* (Explanatory dictionary of the Uzbek language), Tashkent, 2020 (5 volumes. Vol. I, 680 p.; Vol. II, 672 p.; Vol. III, 688 p.; Vol. IV, 608 p.; Vol. V, 592 p.).
26. Mahmud Koshgari. *Devonu Lugati-t-Turk*, Tashkent, 2017, 488 p.
27. Hojiev A. Sovet davrida uzbek adabii tilining taraqqiet (Development of the Uzbek literary language during the Soviet period), in III vol., Volume 3 (word formation and vocabulary), Tashkent, 1991, 188 p.